

VOYAGA YETMAGAN MAKTAB O'QUVCHILARI ORASIDA KUZATILADIGAN PSIXOLOGIK HOLATLAR

Do'sanova Ruxsora Botirjon qizi

*Samarqand viloyati Ishtixon tumani MMTB ga qarashli 4-umumiy o'rta ta'lif maktabi
psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizdagi voyaga yetmagan maktab o'quvchilarining orasidagi psixologik holatlar va ular natijasida kelib chiqayotgan jinoyatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'smir, bolalar, maktab, jinoyat, psixologik holat, muammo, voyaga yetmagan bola, barkamol avlod.

Mustaqillikning ilk yillardan davlatimiz rahbariyati o'smir yoshlarning har tomonlama yetuk, sog'lom va kamol toptirishga e'tiborini qaratdi. Shu o'rinda xuquqtarg'ibot organlari o'smir yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, balki jinoyatchilikning oldini olish, profilaktik chora-tadbirlar ko'rishga e'tibor qaratdilar. Bunday dolzarb muammoni hal qilishda respublikamiz psixologlari ham bir qator amaliy ishlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Biz ham o'z tadqiqotimizda voyaga yetmagan o'smirlarning xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rganishni maqsad qilib qo'yan ekanmiz, bunda biz o'smirlar tarbiyasidagi salbiy og'ishga olib keluvchi omillar va ushbu omillarga nisbatan ularning ijobjiy hamda salbiy javoblarini o'rganamiz. Chunki inson umri o'rganilgan sari, undagi ko'pgina yangidanyangi ma'lumotlar aniqlanaveradi. Shu sabab o'smirlardagi o'zgaruvchanlik xususiyati psixolqlar oldidagi asosiy muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlatimiz rahbarining tashabbusi va bevosita rahnamoligida voyaga yetmaganlar va yoshlar tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish borasidagi islohotlarni tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasi belgilab olindi. Mazkur islohotlarning asosiy maqsadi voyaga yetmaganlar va yoshlarni kamol toptirish, iqtidorini to'la-to'kis ro'yobga chiqarish uchun ijtimoiy, iqtisodiy, xuquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iborat. Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar aholining taxminan 40 foizini tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu yoshda insonning ongi, axloqi, ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Shu bois mamlakatimizda bunday yoshlarga e'tibor kuchaytirilgan.

Bugungi globallashuv davrida doimo huquqiy muammo bo'lib kelgan huquqbazarliklar nafaqat ijtimoiy muammo, balki psixologik muammo hamdir. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbazarliklarga oid qonunlar uzoq vaqtdan beri shakllangan bo'lsa-da, ular ham vaqt-i-vaqt bilan o'zgartirilib boriladi. Hozirgi kunda dunyoning barcha ilg'or va sivilizatsiyalashgan davlatlarida voyaga yetmaganlar jinoyati to'g'risidagi qonunlar o'zgartirildi. Bundan tashqari, bugungi kunda huquqbazarlik jinoyatdan ko'ra noto'g'ri xatti-harakatlar, ijtimoiy noqulaylik sifatida qaralmoqda.

Voyaga yetmaganlarning jinoyati deganda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoiy harakatlar tushuniladi. Ya'ni 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar tomonidan sodir

etilgan jinoyatlar shular jumlasiga kiradi. Turli mamlakatlarda maksimal yosh chegarasi va huquqbazarlikning ma'nosи farq qiladi. Ammo har doim 18 yoshdan kichik bo'ladi, bu huquqbazarlik uchun qonuniy yosh hisoblanadi.

Huquqbazarlik sabablari haqida gap ketganda odamning jinoiy moyilligi ota-onalarning avvalgi hayotidagi yomon ishlarining natijasi sifatida qaraladi. Bu, shubhasiz, noto'g'ri tushuncha va noto'g'ri fikrdir. Boshqa tomondan, bolada huquqbazarlik paydo bo'lganda, ko'pchilik buni ota-onasining bolalik davridagi xatti-harakatlari, harakatsizligi va topshiriqlari bilan bog'liq deb hisoblaydi.

Voyaga yetmagan o'smirlarning huquqbazarlikka yo'l qo'yishiga asosiy sabablardan biri-hissiy muammo. Bolaga noto'g'ri munosabatda bo'lish va noto'g'ri tarbiyalash bolada bir nechta hissiy muammolarni keltirib chiqaradi. Turli kuzatuvlar, holatlar tarixi va intervyular shuni ko'rsatdiki, huquqbazarlarning ancha yuqori foizi hissiy buzilishlarni namoyon qilgan. Ishonchsizlik tuyg'usi, ota-onalar va oilaning boshqa a'zolarini rad etish huquqbazarlik xatti-harakatlarini keltirib chiqaradigan keyingi muhim omillardir.

Bu ma'lumotlarning barchasi shuni ko'rsatdiki, huquqbazar bolalar orasida ishonchsizlik, hasad, e'tiborsizlik va tushkunlik kabi turli xil hissiy muammolar juda keng tarqalgan. Shu sababli, bunday yoshlarni to'g'ri yo'lga qaytarish uchun ko'proq ruhiy ta'sir, ularda kelgusi hayotga nisbatan ishonch va rag'bat uyg'otish muhim hisoblanadi.

Shu o'rinda xuquq-targ'ibot organlari o'smir yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, balki jinoyatchilikning oldini olish, profilaktik chora-tadbirlar ko'rishga e'tibor qaratdilar. Bunday dolzarb muammoni hal qilishda respublikamiz psixologlari ham bir qator amaliy ishlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Biz ham o'z tadqiqotimizda voyaga yetmagan o'smirlarning xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunda biz o'smirlar tarbiyasidagi salbiy og'ishga olib keluvchi omillar va ushbu omillarga nisbatan ularning ijobiy hamda salbiy javoblarini o'rganamiz. Chunki inson umri o'rganilgan sari, undagi ko'pgina yangidan-yangi ma'lumotlar aniqlanaveradi. Shu sabab o'smirlardagi o'zgaruvchanlik xususiyati psixolqlar oldidagi asosiy muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlatimiz rahbarining tashabbusi va bevosita rahnamoligida voyaga yetmaganlar va yoshlar tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish borasidagi islohotlarni tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasi belgilab olindi. Mazkur islohotlarning asosiy maqsadi voyaga yetmaganlar va yoshlarni kamol toptirish, iqtidorini to'la-to'kis ro'yobga chiqarish uchun ijtimoiy, iqtisodiy, xuquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iborat. Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar aholining taxminan 40 foizini tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu yoshda insonning ongi, axloqi, ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Shu bois mamlakatimizda bunday yoshlarga e'tibor kuchaytirilgan. Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rganish borasida respublikamiz psixologlari tomonidan ham bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, M.Davletshin, E.G'oziev, M.Vohidov, V.Karimova, N.Safoev, F.Haydarov, Sh.Do'stmuhamedova, L.Nazirova, N.Komilova kabi olimlar tomonidan o'smir psixologiyasi, voyaga yetmaganlar psixologiyasi, o'smirlar xulq-atvorining o'ziga xosligi, o'smirlardagi og'ishishlar, tarbiyasi

og‘ir o‘smirlar, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, o‘smirlar xulq-atvorini o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillar kabi masalalar o‘rganilgan.

O‘smirlik davrini inqirozli davrga aylantirib qo‘yadigan sabablar juda ko‘p (bolalarning jinsiy etilishi, ularda kattalik hissiningpaydo bo‘lishi va rivojlanishi, mustaqillikka bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi va h.k.). bunday sabablarining tahliliga bag‘ishlab qator maqolalar, risolalar yozish mumkin. Biroq farzandining İtilini topa olmayotgan, u bilan psixologik aloqa o‘rnatishga qiynalayotgan har birorta-onani farzandidagi o‘zgarishlarning sabablaridan ko‘ra shunday vaziyatlarda qanday yo‘l tutishi kerakligi, nima qilish mumkinligi ko‘proq qiziqtiradi. Shu tufayli ushbu bo‘limda asosiy urg‘u o‘smir yoshdagi bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi psixologik aloqani, muloqotni yaxshilash uchun nimalarqilish maqsadga muvofiqligiga qaratildi.

Mamlakatimizda voyaga yetmagan yoshlar muammosiga u yoki bu darajada aloqador bo‘lmagan birorta tashkilot yoki shaxsning o‘zi yo‘q. Biroq bu tashkilotlar va shaxslarning voyaga yetmaganlarni barkamol avlod etib tarbiyalashda o‘z o‘rni, ahamiyati, o‘ziga xos ta‘siri bor. Aytaylik, birorta bekorchi, huquqbuzar yoki diniy aqidaparast o‘z manfaatlari yo‘lida voyaga yetmagan yoshlar xizmatidan, foydalansa, hatto jinoyatga undasa, bu ham ularga ta‘sirning bir, qo‘rinishi, afsuski, salbiy namoyon bo‘lishidir?! Bizning fikrimizcha, voyaga yetmaganlar qarovsizligi va huquqbuzarliklarining oldini olishning eng samarali yo‘li mahalla, oila va matabning mustaqkam hamkorligini ta‘minlashdan iboratdir.

Xulosa o‘rnida shuniyatish mumkinki voyaga yetmaganlar o‘rtasida nizolarni hal yetishni hamda jinoyatchiikni sodir etmaslikni ularga o‘rgatish kerak. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nizoli vaziyatlar har doim paydo bo‘ladi, faqat uni ijobjiy hal etilgan yondashishni bilishimiz kerak. Chunki ular o‘smir yoshidagi o‘quvchilar bo‘lib, o‘tish davrini og‘ir damlarini boshdan o‘tkazayotgan davrdir. Milliy an‘analarimizga, maqollarga asosan: Kattani hurmat qil, kichikni izzat, Odobli bola elga manzur, Ustoz otangdek ulug’, Har qilsang hurmat ko‘rasan, Oltin olma duo ol, duo oltin emasmi kabi ibratli so‘zlarga suyangan holda nizolarni hal etishni, ba‘zan yon berishni o‘rganishni farzand go‘dakligidan oila dargohida o‘rgatish lozim. Qush uyasida ko‘rganini qiladi deganlaridek ibratli oilaning farzandlari ham ibratli bo‘lishi kerak. Odobaxloq masalalari, shuningdek, urf-odatlarimiz, milliy an‘analarimiz, qadryatlarimiz, buyuk ajdodlarimizning pand-nasihatlari, noyob asarlariga amal qilsak, voyaga yetmaganlar o‘rtasida salbiy xulq-atvor ko‘rinishlari kuzatilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. Авезов О.П. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.
2. Abdurasulova. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. —Qonun himoyasida|| T. №1. 2001y. 23 bet
3. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 280.
4. Abdurasulov R. Psixologning kundalik kitobi. Jizzax – 2005
5. Ansupov A. Ya., Shipilov A.I. Konfliktologiya, M.: —Izd-vol 1999